



**SOLIQ MA'MURCHILIGIGA ZAMONAVIY AXBOROT-
KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH
ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH
IQTISODIY AHAMIYATI VA O'RNINI KENGAYTIRISH
ISTIQBOLLARI**

I Fayziyev Muxammadkarim Shavkat o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari

universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Soliq ma'murchiligiga raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning iqtisodiy mohiyati hamda rivojlantirish masa-lalari yoritib o'tilgan. Shuningdek, maqolada yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda moliyaviy mexanizmlarni kamaytirishdagi o'rni haqida tadqiqot olib borilgan, bundan tashqari yashirin iqtisodiyotdagi omillarning ta'sir darajasi va yo'nalishi ham o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *yashirin iqtisodiyot, moliyaviy mexanizm, iqtisodiy ahamiyat, imtiyozlar, moliyaviy texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyasi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik, dasturiy vositalar.*

Kirish: *Yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirish va uni kamaytirish orqali ko'proq daromad olish muammosi rivojlanayotgan davlatlarda muhimroqdir.*



Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir mamlakatda yashirin iqtisodiyotning ko'lamiga turli xil omillar ta'sir qiladi, jumladan: umumiy soliq va ijtimoiy sug'urta badallari yuki;

soliq tizimining murakkabligi;

biznesni rasmiylashtirishga xarajatlar;

boshqaruv ijtimoiy muhiti;

soliq ma'muriyatining samaradorligi;

hukumat vakolatiga va davlat xarajatlariga munosabat.

Xalqaro valyuta fondi tomonidan qayd etilgan ushbu omillarning aksariyati moliyaviy omillardir. Bundan kelib chiqadiki yashirin iqtisodiyot darajasi moliyaviy mexanizmlarning samarali yo'lga qo'yilmaganligidan kelib chiqadi. Moliyaviy mexanizm - bu iqtisodiy mexanizmning ajralmas qismi, moliyaviy rag'batlantirish vositalari, iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarni tartibga solishning shakllari va usullaridir.

Ushbu mexanizmlarning barchasi bevosita yoki bilvosita yashirin iqtisodiyot darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy mexanizmlarning yashirin iqtisodiyot darajasiga ta'sirini ko'radigan bo'lsak, ularning ta'sir yo'nalishidan kelib chiqqan holda, ulardan foydalanib yashirin iqtisodiyotni kamaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishimiz mumkin.

Narxning yashirin iqtisodiyotga ta'siri:

Ayrim turdagi mahsulotlar narxining o'sishi yashirin iqtisodiyot darajasining oshishiga sabab bo'ladi, xususan strategik ahamiyatga ega mahsulotlar narxining oshishi ayrim korxonalarning yashirin iqtisodiyotga o'tib ketishlariga sabab bo'lishi mumkin. Misol uchun neft narxining oshishi



ko'pgina ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir ko'rsatadi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi ularning to'laydigan soliq va boshqa xarajatlarining ham oshishiga sabab bo'ladi, shu sababdan ular soliq yukidan qochish maqsadida yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritishlari mumkin. Davlatning yashirin iqtisodiyotni kamaytirish maqsadida narx belgilashga aralashuvi, iqtisodiyotga aks ta'sir ko'rsatishi yoki bo'lmasa mahsulot taklifining kamayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Soliqlarning yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirishdagi roli. Turli xil tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, soliqlarning yuqori darajada murakkabligi, soliqni kuchsiz yoki samarasiz undirilishi, rasmiy operatsiyalarni va to'lovlarni rasmiy bank kanallari orqali amalga oshirish uchun imtiyozlarning etishmasligi yashirin iqtisodiyot darajasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Yana bir muhim omil - soliq to'lovchilarning hukumatga bo'lgan ishonch darajasidir. Ushbu omillarga soliq siyosati va soliq ma'muriyati choralari ta'sir qilishi mumkin.

Umuman olganda, yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishga yordam beradigan omillarni hal qilish bo'yicha strategiya barcha manfaatdor tomonlarni, masalan, markaziy bankni, bank sektorini, moliya yoki iqtisodiyot vazirligini va soliq ma'muriyatini o'z ichiga olgan keng qamrovli bo'lishi kerak. Yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirishda soliqlar asosiy o'rin egallaydi. Albatta, soliq stavkalarining optimal darajada belgilanishi yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytiradi. Bunda soliq bo'yicha imtiyozlarning taqdim etilishi soliq to'lovchilarning o'z daromadlarini yashirmasligiga yoki o'zlari sotib olgan mahsulot va xizmatlar uchun chek talab qilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Buning uchun mexanizmni to'g'ri shakllantirish va uning ishlashini nazoratini yo'lga qo'yish lozim. Soliq ma'muriyatlarining yashirin iqtisodiyot faoliyatini aniqlash imkoniyati har qanday operatsiya hujjatlar asosida iz qoldirganda sezilarli darajada oshadi.



Bunday yo'llar korxona tomonidan tovar yoki xizmat uchun chiqarilgan oddiy hisob-fakturadan yoki tovar yoki xizmat uchun qayd qilingan to'lovdan iborat bo'lishi mumkin. Naqd pul operatsiyalari uchun hujjat izini ishlab chiqishning boshlang'ich nuqtasi ma'lum miqdordan yuqori narxga ega bo'lgan har qanday sotish uchun soliq hisobvarag'ini rasmiylashtirish talabidir.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan elektron xizmatlar, shu jumladan mobil ilovalar joriy etilgan. Soliq to'lovchilar bilan imkon qadar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali muloqot qilishni yo'lga qo'yish maqsadida davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'rsatilayotgan elektron davlat xizmatlarning soni 45 taga etkazildi. Mazkur xizmatlar Davlat soliq qo'mitasining "Elektron davlat xizmatlari - my.soliq.uz" portali orqali ko'rsatilmoqda. Shu bilan birga, portaldagi soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq qonunchilikda ko'zda tutilgan 12 turdagi elektron hujjatlar hamda 27 turdagi hisobotlar yuborilmoqda.

Huddi shunday, PAYME, CLICK, U-PAY hamda MUNIS elektron to'lov tizimlari orqali jismoniy shaxslar tomonidan 9,7 trln.so'mdan ortiq soliqlar elektron shaklda to'landi. Mazkur to'lovlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 trln.so'mga oshgan.

Xulosa va takliflar.

1. Blokcheyn texnologiyasini qo'llash:

Soliq ma'murchiligida shaffoflikni ta'minlash uchun blokcheyn texnologiyasi quyidagi imkoniyatlarni beradi. QQS zanjirini nazorat qilish: Blokcheyn asosidagi hisob-fakturalar QQS summasining "uzilib qolishi" yoki asossiz qaytarilishini (VAT gap) nolga tushiradi. Tranzaksiyalar xavfsizligi: Shartnomalarning haqiqiyligini tekshirish va mablag'lar harakatini real vaqt rejimida kuzatish.



2. "Soliq mobil ilovasi" imkoniyatlarini kengaytirish. Foydalanuvchilar (ayniqsa kichik biznes va o'zini-o'zi band qilganlar) uchun soliq to'lashni "bir klik" darajasiga keltirish lozim. Pree-filled (Oldindan to'ldirilgan) deklaratsiyalar: AKT yordamida soliq to'lovchining daromadlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ib, tayyor deklaratsiyani taqdim etish. To'lovchi faqat uni tasdiqlaydi. Soliq keshbeklari tizimini yanada takomillashtirish orqali aholini chek talab qilishga qiziqtirish (bu orqali chakana savdoda tushumlar legallashadi).

3. "Aqlli" soliq nazorati (Smart Audit):

Inson omilini kamaytirish va korrupsiyaning oldini olish uchun:

Masofaviy audit: Korxonaga bormasdan, barcha moliyaviy hujjatlarni elektron bazalar (E-faktura, onlayn-NKM) orqali tekshirish. Narsalar interneti (IoT): Ishlab chiqarish hajmini real vaqtda o'lchovchi sensorlarni soliq tizimiga ulash.

Адабиётлар/Литература/Reference:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Tosh: G'.G'ulom 2020.- 640 b.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari.
www.soliq.uz.